



O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDA YOSHLAR TURIZMI RIVOJINING O'RNI

i.f.n., dots. **Ulashev Xubbim Askarovich**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
ORCID: 0009-0006-4176-9918
hubbimulashev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasini so'nggi yillarda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida jadal rivojlanayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ko'pgina mamlakatlar turizm sohasini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foydaga erishishni, balki o'zlarining milliy urf - odat va an'analarini saqlab qolish, uni jahon hamjamiyatiga namoyon etish va bu orqali o'zaro do'stona munosabatlarni rivojlantirishni ko'zlayotganligi, bu o'rinda yoshlarning o'rni sezilarli ekanligi muhokama etilib, taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar turizmi, tabiiy iqlim, rekreatsion ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy, salohiyat, sayohat, kategoriya, turist.

РОЛЬ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОГО ТУРИЗМА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

к.э.н., доц. **Улашев Хуббим Аскарлович**
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено бурному развитию туристической сферы как важной отрасли экономики в последние годы. Тот факт, что многие страны стремятся не только добиться экономических выгод за счет развития туристической отрасли, но и сохранить свои национальные обычаи и традиции, представить их мировому сообществу и за счет этого развивать дружеские отношения, это обсуждалось, что роль молодежи значительна, высказывались предложения и мнения.

Ключевые слова: молодежный туризм, природный климат, рекреационный социально-экономический, историко-культурный потенциал, путешествие, категория, турист.

THE ROLE OF YOUTH TOURISM DEVELOPMENT IN THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN

PhD, assoc. prof. **Ulashev Hubbim Askarovich**
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article pays special attention to the rapid development of the tourism sector as an important sector of the economy in recent years. The fact that many countries strive not only to achieve economic benefits through the development of the tourism industry, but also to preserve their national customs and traditions, present them to the world community and thereby develop friendly relations, it was discussed that the role of youth is significant, suggestions and opinions were expressed.

Key words: youth tourism, natural climate, recreational socio-economic, historical and cultural potential, travel, category, tourist.

Kirish.

Bugungi kunda turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa O'zbekistonning tabiiy iqlimi, rekreatsion ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy salohiyatini hisobga olgan holda ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan yuqori rentabelli turistik tarmoqlarni yaratishdan iborat. Xalqaro turizm bozoridan mustahkam o'rin olishi uchun O'zbekistonda sayyohlarga yuqori darajadagi qulayliklar yaratilishi, ularga xizmat ko'rsatishning barcha turlari bo'yicha standartlar tizimi, xavfsizligini ta'minlash kafolatlarini yuzaga keltirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Azar (1998) turizm tushunchasini "Turizmga alohida bir davlat milliy xo'jaligi chegaralarida yoki jahon xo'jaligi miqyosidagi muayyan unsurlar o'rtasidagi turli aloqalari mavjud bo'lgan yirik iqtisodiy tizim sifatida qarash lozim", deb ta'riflaydi.

Kabushkin (2004) ham turizmni "insonni sayohat davomida yuzaga keladigan munosabatlar majmui va uzaro aloqa hamda xodisalar butunligi" sifatida ta'riflab, yuqorida keltirilgan fikrga yaqin ta'rif beradi.

Jukova (2006) ilmiy adabiyotlarda turizm tushunchasiga tugal ta'rif yo'q, degan xulosaga keladi. Uning tahliliga ko'ra, bugungi kunda turizm tushunchasiga nafaqat turli xil talqinlar berilmoqda, balki birini ikkinchisi bilan qiyoslab bo'lmaydigan ko'pgina hodisalarni ham qo'shib yuborish holatlari kuzatilmoqda, jumladan, mahalliy tarmoqlar va jahon iqtisodiyoti sohalari ham shu tizimga kiritilmoqda. Bir guruh olimlar turizmni iqtisodiy hodisa sifatida turistik tur tushunchasi, ya'ni turoperator va turagentliklar faoliyati bilan bog'laydilar. Bu nuqtai nazarga rossiyalik ba'zi mutaxassislar ham qo'shilishadi va "tashkilotlarning ayrim qismigina faqat turistlar uchun mo'ljallangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan", deb ta'kidlaydilar.

Bunday fikr tarafdorlari turizmni alohida soha sifatida ajratish zaruriyati yo'q, deb hisoblaydilar. Real amaliyotdan kelib chiqsak, bu nuqtai nazar bizning mamlakatimizda ham hukm surmoqda. Ammo ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida mavjud umumdavlat faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar klassifikatorining «Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot klassifikatori» (Узстандарт, 2006) da turizm nafaqat xalq xo'jaligining alohida tarmog'i sifatida qaralmaydi, balki iqtisodiyot sohasining yoki tarmoqlarining mustaqil kompleksi sifatida ham ajratilmaydi. Buning natijasida AQSh, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Kanada, Xitoy va Turkiyadan farqli o'laroq, O'zbekistonda turizmni boshqarishning yagona tizimi va aniq statistikasi mavjud emasligi ma'lum bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda uslubiy asos sifatida iqtisodiy tahlilning bir qator usullaridan foydalanildi. Xususan, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya hamda statistik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Buyuk Ipak yo'lida joylashgan, asrlar davomida o'z davlat g'aznasining katta qismini sayohatchilar va xorijiy savdogarlar hisobidan to'ldirib kelgan qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlariga ega. Bu borada esa yoshlar turizmi katta ahamiyatga ega bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Yoshlarning o'zga xalqlarning urf-odat va an'analarini o'rganishga qiziqishlari katta bo'ladi. WYSE (travel confederation 2013) sayohat konfederatsiyasining izlanishlariga ko'ra sayohat qiluvchi yoshlarning aksariyat qismi o'rganish, dam olish maqsadida o'z sayohatlarini

amalga oshirishgan. Bu ular uchun notanish joylarni kashf qilish, yangi odamlar bilan uchrashish va ularning madaniyatini o'rganishdan iboratdir.

- Yoshlar o'zga millat va ellatlarni bilish orqali ularni hurmat qilishni o'rganishadi. Bu esa o'z navbatida kelajakda davlatlar o'rtasidagi o'zaro do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi;

- Yoshlar iqtisodiy jihatdan cheklangan bo'lib, sayohatlari davomida ular ko'proq iqtisod klassdagi xizmatlardan foydalanishga harakat qilishadi. Misol uchun yoshlarning 65%i ular uchun atalgan (arzonroq narxlardagi) hostellardan foydalanishadi (1-rasm). Transport vositalaridan esa uzoq masafalardagina havo transportlaridan, asosan esa nisbatan arzonroq bo'lgan avtobus va temir yo'l vositalaridan foydalanishadi.

- Yoshlar boshqa turistlar kategoriyasiga qaraganda mahalliy mahsulotlar va xizmatlarni ko'proq harid qilishadi. Bu esa o'z navbatida mahalliy aholi daromadlarini oshirishiga olib keladi.


- Yoshlar boshqa turistlarga qaraganda o'zlarining sayohatlariga ko'proq vaqt ajratishadi.

- Turistik sayohatlardan qoniqish hosil qilgan yoshlar bu kelajakdagi katta turistik potensial hisoblanadi.

- Yoshlar yangi axborot texnologiyalariga o'ta moslashuvchan ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular orasida sayohat qiluvchilarning 80%i ma'lumotlarga internet orqali ega bo'lishadi.

- Yoshlar sayohatdan olgan taasurotlari orqali sayohat qiluvchilar sonining ko'payishiga xizmat qilishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947- son farmonida ko'rsatilganidek, mamlakatimizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish yillarda konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish rejashtirilgan⁴⁰.




1-rasm. Yoshlarning transport vositalaridan foydalanishi (WYSE, 2013)

⁴⁰ <https://lex.uz/uz/docs/-6811936>

Mazkur vazifani amalga oshirilishi turizm sohasining tezkor rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, turistik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga «Turizm to'g'risida»gi qonunning yangi tahririni ishlab chiqish natijasida turistik sohani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniqlab beriladi, mazkur sohada tadbirkorlikning keng rivojlanishiga zamin yaratiladi (Risola, 2017).

Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik yo'nalishlarni yaratish, jumladan: mamlakat barcha hududining turistik imkoniyatini o'rganish va yangi turistik mahsulotlar va yo'nalishlarni shakllantirish; aholi uchun turlar va ekskursiyalar o'tkazish bo'yicha choratadbirlar majmuasini amalga oshirish, ichki yo'nalishlar bo'yicha yangi aviaaloqalar ochish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish asosida hududiy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha charter reyslarini tashkil etish maqsadida yangi turistik yo'nalishlarni yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini kuchaytirishga oid islohotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha tadbirlar Harakatlar strategiyasidan joy egallagani turistik xizmatlar ko'rsatuvchi sub'ektlarning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz turizm sohasidagi ikkita katta muammo, birinchisi o'z faoliyatining barcha turlarini miqdor va sifat jihatidan kengaytirish, ikkinchisi pulli xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasiga kelgan sayyohlar soni⁴¹

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining yakuniy hisobotiga ko'ra 2019 yilda O'zbekistonga 6,74 nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2018 yilda ularning soni 5,3 mln.ni qayd etgan, ya'ni sayyohlar soni bir yilda 26.2 foizga oshgan. 2017 yilda ularning soni 2,69 mln., 2016 yil esa 2,07 million nafar bo'lgan.

Turizm qo'mitasi matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, 2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 5,7 million nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan.

Ushbu ko'rsatkichlar so'nggi 5 yilliklarda o'rganilganda o'tgan yillarga nisbatan 16,33 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni yillar kesimida quyidagicha (yanvar-sentyabr):

- 2020 yil - 1,4 million nafar;
- 2021 yil - 1,1 million nafar;
- 2022 yil - 3,6 million nafar;
- 2023 yil - 4,9 million nafar;
- 2024 yil - 5,7 million nafarni tashkil etgan.

⁴¹ <https://uzbektourism.uz/uz/research>

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning turistik salohiyatini targ'ib qilish va turistlar oqimini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 28 ta xorijiy davlatdagi diplomatik vakolatxonalariga tegishli tartibda mablag' ajratilgan.

Bundan tashqari joriy yilning 10 oyi davomida 14 ta xalqaro turizm yarmarkasida milliy turizm stendi va tadbirkorlik sub'ektlari ishtiroki ta'minlangan⁴².

Buyuk Britaniya, Malayziya va Tojikiston davlatlarida Qo'mita tomonidan madaniy tadbirlar tashkil etilib, mamlakatimizning gastronomik turizm imkoniyatlariga doir taqdimotlar o'tkazilgan.

Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasiga tashrifi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va viza tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida 2021 yil 1 yanvardan boshlab turizm maqsadida O'zbekiston Respublikasiga 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatga keluvchi Avstraliya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Niderlandiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Finlyandiya, Shveysariya va Yaponiya fuqarolari uchun, 55 yoshga to'lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatga O'zbekiston Respublikasiga keluvchi Belgiya Qirolligi, Indoneziya, XXR (turistlar guruhlar tarkibida), Malayziya, AQSH, Fransiya, Vetnam, Isroil, Polsha, Vengriya, Portugaliya va Chexiyaning fuqarolari uchun viza rejimi bekor qilingan.

2018-yil davomida 9 mamlakat uchun vizasiz rejim e'lon qilindi. Fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza rejimi qo'llanuvchi mamlakatlar soni esa 12 tadan 50 taga oshdi. 2018-yilning 15-iyulidan va'da qilinganidek elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi ishlay boshladi. Xorijiy fuqarolarni vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish to'liq elektron formatdagi E-MEHMON tizimiga o'tkazildi. O'zbekistondan tranzit orqali o'tuvchi 101 davlat fuqarolari uchun mamlakatda vaqtinchalik vizasiz bo'lish tartibi kiritildi.⁴³

Eron prezidentining 2024-yilning 14-16-sentabr kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida imzolangan. Tashqi ishlar vazirligi Shartnoma-huquq departamenti ma'lumotiga ko'ra, mazkur hujjat 11 moddadan iborat bo'lib, uning kuchga kirishi «ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, turizm, fan va ilmiy faoliyat sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish»ga xizmat qiladi.

Hujjatga ko'ra, tomonlar paritet asosda va milliy qonunchiligimiz qoidalariga muvofiq tomonlar davlatlarining ishbilarmon va ilmiy doiralari vakillari, shuningdek, turistik guruhlar uchun viza berishning soddalashtirilgan tartibini joriy qiladi.

Bunda «**ishbilarmon doiralari vakillari**» deganda bir tomon davlatining boshqa tomon hududida investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolari tushuniladi.

«**Ilmiy doiralari vakillari**» — bir tomon davlatining boshqa tomon hududida fan va ilmiy faoliyatni amalga oshiruvchi fuqarolari.

«**Turistik guruh**» — bir tomon davlatining bir vaqtning o'zida boshqa tomon hududiga turistik maqsadlarda kiruvchi 5 (besh) dan 20 (yigirma) kishigacha bo'lgan fuqarolari.

Tomonlar davlatlarining vakolatli organlari ishtirokchi davlatlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli hujjatlarni olgandan so'ng, ularni 3 (uch) ish kuni ichida (hujjat olingan kundan tashqari) ko'rib chiqadi va hujjatlar ma'qullangan taqdirda viza berish uchun tasdiqnoma rasmiylashtiradi.

Tomonlar davlatlarining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari quyidagi vizalarni taqdim etadi:

- bir tomon davlatining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida boshqa tomon davlatiga tashrif buyuruvchi ishbilarmon doiralari vakillari uchun amal qilish muddati 6 (olti) oygacha bo'lgan ko'p martalik kirish vizasi;

- bir tomon davlatining fan va ilmiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida boshqa tomon davlatiga tashrif buyuruvchi ilmiy doiralari vakillari uchun 1 (bir) oygacha amal qiladigan viza;

⁴² <https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonga-xorijiy-mamlakatlardan-kelayotgan-sayyohlar-soni-ortib-bormoqda-652281>

⁴³ <https://uzbektourism.uz/uz/research>

• bir tomon davlatining turist sifatida, turistlar guruhlari tarkibida boshqa tomon davlatiga tashrif buyuruvchi fuqarolari uchun 30 (o‘ttiz) kungacha bo‘lgan turistik viza.

Alohida hollarda, agar qo‘shimcha ko‘rib chiqish talab etilsa, viza berish muddati 10 (o‘n) kundan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

2021-yil 1-yanvardan boshlab ushbu bandda ko‘rsatib o‘tilgan xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasiga kirishda 50 AQSH dollari miqdorida Davlat byudjetiga o‘tkaziladigan kirish yig‘imi to‘laydilar va kirish yig‘imi to‘langanligini tasdiqlaydigan hujjat mamlakatga kirish uchun asos hisoblanadi (Farmon, 2016).

Shuningdek, «2021-yilning 1-yanvariga qadar muddatda xalqaro aeroportlarda va O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida vizalar olish, shu jumladan tranzit vizalari olish tartibini sezilarli ravishda soddalashtirish, vizalarni rasmiylashtirish va berish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni, shu jumladan, Tashqi ishlar vazirligining konsullik boshqarmasiga va O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalariga tashrif buyurmasdan viza olishga hujjatlarni topshirish va so‘rovnomalarni to‘ldirishda «on-layn» tizimdan foydalanish» (Farmon, 2016) kabi jihatlari tubdan o‘zgartirilib, respublikaga keluvchi va ketuvchi turistlar uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Umuman sayyohlarni jalb qiluvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sayyohlik infratuzilmasining qanchalik rivojlanganligi hisoblanadi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida joylashuv vositalari bilan bog‘liq yengilliklar yaratildi. Masalan, xostellarga bo‘lgan talablar soddalashtirildi, jumladan ularga nisbatan qo‘yilgan 22 talab bekor qilindi. Bundan tashqari, oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish tartibi soddalashtirildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra tarixiy shaharlarimizdagi ko‘rsatkichlar kun sayin yuqorilamoqda. Misol uchun, Buxoro viloyatiga 2024 yilning o‘tgan davrida 650 ming nafarga yaqin xorijiy sayyoh tashrif buyurib, ularga ko‘rsatilgan xizmatlar orqali turizm eksporti 160 million AQSH dollaridan oshdi. Bu borada o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,8 foizga o‘shish kuzatildi. Shu bilan birga, respublika hududlaridan Buxoroga 1 million 859 ming 400 nafar mahalliy aholi sayyoh sifatida tashrif buyurdi. 2024 yilning 6 oyida sohada 5800 nafar yangi ish o‘rni tashkil etildi. Umumiy qo‘shib hisoblaganda qariyb 58,5 ming nafar aholi aynan turizm sohasida faoliyat yuritmoqda. Joriy yil yakuniga qadar viloyatga 3,5 million nafar mahalliy va 1,5 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurishi kutilmoqda. Bu bilan turizm xizmatlari ekporti hajmi 410 million dollarga yoki o‘tgan yilga nisbatan 120 foizga oshiriladi⁴⁴.

Turizm sohasi so‘ngi yillarda iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida jadal rivojlanmoqda. Ko‘pgina mamlakatlar turizm sohasini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foydaga erishishni, balki o‘zlarining milliy urf - odat va ana‘analarini saqlab qolish, uni jahon hamjamiyatiga namoyon etish va bu orqali o‘zaro do‘stona munosabatlarni rivojlantirishni ko‘zlashmoqda.

Litsenziyalashtirish jarayoni davlat xizmatlari markazlari hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari va departamentlariga topshirildi. Hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati 15 kundan 10 kunga qisqartirildi. Shuningdek taqdim etiluvchi hujjatlar soni ham kamaytirildi.

Keyingi yillar davomida mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirish yo‘lida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, turistik avtobuslar xavfsizlik talablariga javob bergan taqdirda kuzatuv majburiyatidan ozod qilindi. Tungi vaqtda turistik avtobus harakatlanishiga nisbatan belgilangan ta‘qiqlov bekor qilindi. Shu bilan birga, mahalliy sayyohlik guruhlarini tashishdan oldin ichki ishlar organlarining hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilgan transport vositasini texnik tekshiruvdan o‘tkazish majburiyati bekor qilindi.

⁴⁴ <https://uza.uz/oz/posts/turizmning-yangi-yonalishlariga-etibor-ortmoqda-624334>

Xulosa va takliflar.

Turizm sohasini boshqarish uchun uni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va davlat tomonidan nazorat qilishni taqozo etadi. Bu esa davlatning turistik siyosatini ishlab chiqishini talab etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilganimizda turizm yoshlarga hayotda o'z yo'lini topishga yordam beradigan va katta sarmoya talab qilmaydigan voqelik. U yigit-qizlarga o'zini namoyon etish, qaror qabul qilishni o'rganish va haqiqiy yetakchi bo'lish imkoniyatini beradi. Turizm xizmatlari sifatini yanada yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar esa yurtimizga keluvchi yosh sayyohlar soni ortishiga, tarmoq jozibadorligiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Askarovich, U. K. (2023). *Main Ways of Development of the Tourism Potential of the Republic of Uzbekistan*.

Farmon (2016) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 dekabrda PF-4895-sonli Farmoni tahririda — O'R QHT, 2017 y., 1-son, 3-modda*.

Risola, (2017) *2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017. – 268 b.*

Ulashev, K. A. (2024). *ANALYZING THE NATIONAL ECONOMY KEY INDICATIONS USED. World of Scientific news in Science, 2(2), 466-471.*

WYSE (2013) *Travel Confederation 2013*
<http://webbut.unitbv.ro/BU2015/Series%20V/BULETIN%20I%20PDF/13>

Азар В.И., Туманов С.Ю. *Экономика туристского рынка. - М.: ИПКГ, 1998. – 239 с.*

Жукова М.А. *Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. 2-е изд., стер. М.: КНОРУС, 2006. - 193 с.*

Кабушкин Н.И. *Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. – 409 с.*

Узстандарт (2006) *Общегосударственный классификатор услуг Республики Узбекистан, утвержден и введен в действие постановлением Агентства «Узстандарт» от 12 мая 2006 года, № 05.*

Улашев, Х. (2024). *МАКРО ИҚТИСОДИЙ БАҲҚАРОРЛИКНИНГ МАМЛАКАТ МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 10-14.*

Улашев, Х. (2024). *Мамлакат миллий иқтисодиёти ривожда хизмат кўрсатиш соҳасининг ўзига хос хусусиятлари. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(1), 543-550.*